

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SHAXSIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING ROLI

Fayzullaeva Малика Закировна

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutahassislarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishda bolalar yozuvchilari, shoirlarning asarlari yosh avlodni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan e'tiborga sazovor bo'lib kelayotgani haqida ma'lumot berildi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti; tarbiya, ma'naviy va axloqiy poklanish, adabiyotining o'rni, shaxsiy kompetensiya, insoniy fazilatlar, bolaning kuchli va zaif tomonlari, mas'uliyat.

THE ROLE OF FICTION IN THE DEVELOPMENT OF THE PERSONAL COMPETENCE OF PRESCHOOL CHILDREN

Fayzullaeva Malika Zakirovna,

Institute for Retraining and Advanced Training of Directors and Heads of Preschool Educational Organizations Senior Lecturer

Abstract: In the development of personal competence of preschool children, works of children's writers, poets, contributing to the education of the younger generation in the spirit of the best human qualities are noted.

Keywords: children's literature; education, spiritual and moral repentance, the role of literature, personal competence, human qualities, the strengths and weaknesses of the child, responsibility.

РОЛЬ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Файзуллаева Малика Закировна,

Институт переподготовки и повышения квалификации директоров и руководителей дошкольных образовательных организаций старший преподаватель

Аннотация: В развитии личной компетенции детей дошкольного возраста отмечены произведения детских писателей, поэтов, способствующие воспитанию молодого поколения в духе лучших человеческих качеств.

Ключевые слова: детская литература; воспитание, духовное и нравственное покаяние, роль литературы, личная компетенция, человеческие качества, сильные и слабые стороны ребенка,

ответственность.

Kirish. Bolalar adabiyoti maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy dunyosini shakllantirish va axloqiy qiyofasini tarkib topdirishning eng samarali vositasidir.

Ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zamirida tarbiya yotadi. Ha, bu ulkan ishda bolalar adabiyotining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni tabiatni sevishga, halol yashashga, ilm-fan cho'qqilarini egallashga, xalq uchun foydali yangi kashfiyotlar qilishga o'rgatadi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr tuyg'ularini o'stiradi.

Asosiy qism. Maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishda bolalar yozuvchilari, shoirlarning asarlari yosh avlodni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan e'tiborga sazovor bo'lib kelmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsiy kompetensiyasi – “men” konsepsiyasining shakllanishi bolaning o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog'lom turmush tarzini amalda qo'llash mahoratidir. Bola:

- o'zining hayotdagi o'rnini biladi, mustaqil va o'ziga ishonadi;
- o'zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi;
- o'zining boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi;
- o'z g'oyalarini ilgari suradi va targ'ib qila oladi; o'zi uchun qaror qabul qilishni o'rganadi;
- qanday tanlashni biladi, o'z oldiga maqsadlar qo'yadi;
- o'z harakatlari uchun tashabbus va mas'uliyatni namoyon qiladi;
- o'zining yaxshi ko'rgan narsasi, qiziqishlari, his-tuyg'ularini kattalar yoki bolalar bilan o'rtoqlashadi;
- o'sib borayotgan jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi (o'z ehtiyojlarini ifodalaydi va ularning qondirilishini ta'minlay oladi);
- hissiyotlari va xatti-harakatlarini boshqara oladi;
- sog'lom turmush tarzi qoidalariga, madaniy-gigienik qoidalarga rioya qiladi;
- jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadi, o'z salomatligi uchun mas'uliyatni namoyon qiladi.

Demak, shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish

va barqaror sog'lom turmush tarzini amalda qo'llash mahoratini o'z ichiga oladi.

Bolalar hayotdagi o'z o'rnini biladilar, o'zlarining, shuningdek, boshqalarning farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishga o'rganadilar. Bola mustaqil va o'ziga ishonadi. O'zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi. U o'zining boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi. O'z g'oyalarini ilgari suradi va targ'ib qila oladi; o'zi uchun qaror qabul qilishni o'rganadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishda xizmat qiladigan asarlardan biri Zamira Ibrohimovaning "Mardona" hikoyasini tahlil qilib ko'ramiz:

Muallif hikoyada hajviy yumoristik usulni qo'llaydi. Betob odamga ko'rsatiladigan mehr, e'tiborni olqishlaydi. Bemorga tinchlik osoyishtalik zarurligi va ayniqsa, har bir ishga aql, fahm-farosat bilan yondashish, me'yorni saqlash haqida kichkintoylarga qiziqarli voqealarda hikoya qiladi.

Hikoya qahramoni quvnoq, sodda, samimiy, mas'uliyatli qiz – Mardonaga bemor opasidan xabar olishdek muhim topshiriq yuklatiladi. Qizaloq o'ziga bunday vazifa berilganidan "ko'ngli tog'day ko'tariladi. Axir kasal opasidan xabar olib turish – hazil ish emas". Muallif hikoya syujetidagi ko'tarinki ruhni ortiqcha izohlarsiz qizchanning quvnoq harakatlari, qo'g'irchog'i bilan o'ynashlari, opa-singil o'rtasida qisqa dialoglar orqali aniq ko'rsatishga erishadi. Qizcha muhim topshiriqni olishi bilanoq harakatlarini boshlaydi:

"Mardona tez-tez yurib uyga kirdi. Yotoqxonaning eshigini qiya ochib, ichkariga mo'raladi. Deraza yonidagi karovotda ranglari oqarib ketgan Durдона beholgina yotardi.

– Opajon... Yaxshimisiz? – dedi.

Opasi unga qarab jilmaydi. Mardonaning nazarida opasining so'lg'in yuzi yashnab ketgandek bo'ldi. Opasi ham uning fikrini tasdiqlagandek, salgina Yaxshiman, dedi.

Mardona opasining javobidan xursand bo'ldi. So'ng:

– O'zim sizdan xabar olib turaman, xo'pmi, – dedi jiddiy ohangda.

– Xo'p, – dedi chehrasi ochilib Durдона".

Keltirilgan parchadan ko'rinib turibdiki, bu muhim vazifadan va ayni paytda bu mehribonchilikdan ikkala qiz ham baxtiyor. Mardona "Tez-tez xabar olib tursam, opam tezda tuzaladi", degan ezgu niyat qiladi-yu, amalda kasal opasidan xabar olib turishni yengil o'yinga aylantirib yuboradi. U oxirgi marta opasidan xabar olishga borganida "Durдона chap qo'lini choyshab ustiga qo'yganicha, og'ir-og'ir nafas olib uxlab yotardi. Mardona ovozini biroz ko'tarib:

– Opajon! ... – dedi.

Durдона indamadi.

– Opajon-on! – dedi Mardona ovozini balandlatib.

Opasi cho'chib uyg'ondi. Mardona ham qo'rqib ketdi va qaltiroq ovozdada so'radi:

– Opajon, Yaxshimisiz?

Bu safar Durdonaga singlisining ovozi vahimali eshitildi. Boshi, tomog‘i qattiqroq og‘rib ketgandek bo‘ldi. Ko‘zlari yosh landi.

Opasining bu holatini ko‘rib, Mardona baqrayganicha qarab qoldi. Axir oyisi kelguncha uni tuzatib qo‘ymoqchi edi-ku!”

Yosh kitobxon qalbida qizchani yaxshi, ezgu niyati o‘ylanmasdan qilingan harakatlar tufayli noxush tugaganiga achinish, afsuslanish hissi uyg‘onadi. Muallif voqeadan xulosa chiqarmaydi. Lekin Mardonaning bunday holatidan kitobxon kasal odamga qanday munosabatda bo‘lish lozimligi haqida tegishli xulosa chiqarib oladi.

Bu hikoya bolada shaxsiy kompetensiya – o‘zi uchun maqsadlar qo‘yish, bolaning yaqinlariga g‘amxo‘rlik qilish uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini shakllanishiga misol bo‘la oladi.

Zamira Ibrohimova “Chiroq-yorug‘lik” hikoyasida chiroq orqali uylarimiz yorug‘, dillarimiz ravshan ekani, chiroqni tejash va undan oqilona foydalanish kerakligi, kunduz kunlari chiroqni o‘chirish, chiroqni tejash, chiroq yoqish tugmalarini bekorga o‘ynamaslik, undan oqilona foydalanishga o‘rgatiladi.

Bu hikoya bolada shaxsiy kompetensiya – o‘zining hayotdagi o‘rnini biladi, mustaqil va o‘ziga ishonadi, o‘z harakatlari uchun tashabbus va mas‘uliyatni namoyon qiladi, o‘zining bilgan narsasi, his-tuyg‘ularini kattalar yoki bolalar bilan o‘rtoqlashish qobiliyatini shakllanishiga misol bo‘la oladi.

T.Rasulevning «Dilbar» hikoyasida Dilbar ismli qizchani uyda onasiga bergan yordami haqida yozilgan. Dilbarning hovliga suv sepayotganini ko‘rgan onasi xursand bo‘lib ketadi. Dilbar hovliga suv sepib bo‘lib hovlini sipirib qo‘yadi. Onasini nasihatlariga quloq tutib onasiga o‘xshagisi keladi.

Bu hikoya bolada shaxsiy kompetensiya – o‘zi uchun maqsadlar qo‘yish, bolaning yaqinlariga g‘amxo‘rlik qilish uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyati, sog‘lom turmush tarzi qoidalariga, madaniy-gigienik qoidalarga rioya qilishni shakllanishiga misol bo‘la oladi.

N. Nosovning «Bodring» hikoyasi polizda bodring o‘g‘rilagan bola haqida yozilgan. Pavlik bodringlarni uyiga olib borib, onasidan gap eshitadi va bodringlarni darhol polizga qaytarib olib keladi. Bu qilgan ishi o‘g‘rilik ekanini tushungan Pavlik poliz egasidan kechirim so‘raydi.

Hikoya orqali muallifi bolalarni halolikka, to‘g‘ri so‘zlikka mehnat qilishni tasvirlab bergan.

Bu hikoya bolada shaxsiy kompetensiya – o‘zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlash, hissiyotlari va xatti-harakatlarini boshqara olish, o‘zi uchun qaror qabul qilish qobiliyati shakllanishiga misoldir.

Xulosa. Maktabgachayoshdagi bolalarni shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishda badiiy adabiyotning ahamiyati shundaki bolada ijobiy fazilatlarni tarkib toptiradi, atrofdagilarga va tengdoshlariga e‘tiborli,

rahm-shafqatli bo'lish, yordam berish, topshiriqlarni bajarishda qat'iyat va sabr-toqatni namoyish etish, tashabbuskor, faol bo'lish, bo'lajak voqealardan mamnuniyat his qilishga o'rgatadi. Shuningdek, badiiy adabiyot bolani o'zini hurmat qilish, o'z qadr-qimmatini bilish, milliy an'analarni va madaniy qadriyatlarni hurmatlash, ular bilan faxrlana olishni (milliy kiyimlar, o'yinlar, urf-odatlar) o'rgatadi.

Bugungi kun bolalarini qiziqtirgan, ularning o'y-xayollarini tarannum etadigan, orzulariga qanot bag'ishlaydigan asarlarga talab yuqori bo'lganligi sababli, biz, kitobxonlar bolalar yozuvchilari, shoirlardan maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsiy kompetensiyasini tarbiyalashda – bolani o'zi uchun maqsadlar qo'yish, tashabbus ko'rsatish va muvaffaqiyatga erishish qobiliyati shakllanishiga turtki bo'ladigan asarlar yaratishlarini so'rab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. – T., 2020.

2. Grosheva I.V, Yevstafeva L.G, Maxmudova D.T, Nabixanova sh.B, Pak S.V, Nazarova V.A, Isxakova M.R, Abdunazarova N.F. «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T:2022

3. "Ta'limdagi global hamkorlik" loyihasi doirasida 7 nomda kitob va qutidan iborat kitoblar to'plami

4. Adashboev T., Rajabov D. Satrlardan taralgan mehr. — Toshkent. Turon zamon ziyo, 2017.

5. Ibrohimova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. — T.: O'qituvchi, 1994.

6. Z.Ibrohimova. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida badiiy adabiyot". – T., 2012

7. Dilfuza Azimovanning eng yaxshi tarjima deya e'tirof etilgan tarjima asarlari– T., 2019.